

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI TAYYORLASH BO'YICHA)**
17/22-LS-408 sonli

Samargand sh.

"15" noyabr 2022 yil

Bizlar "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rinnarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 2022 yil 8-avgustdagi 47-sonli buyruq asosida ish yurituvchi direktor o'rinnbosari v.b K.Ximmatkulov bir tomonidan va "SPECIAL LOVIHA" mas'uliyati cheklangan jamiyatni nomidan Ustav asosida ish yurituvchi J. X. Haydarov ikkinchi tomondan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK xarid komissiyasining 11.11.2022 yildagi 22110012177466-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

1.SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: Samarqand viloyati Nurobob tumani Po'latchi MFYdag'i 3 ta guzar yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish belgilangan norma va qoidalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

2.SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan **23 545 023** (Yigirma uch million besh yuz qirq besh ming yigirma uch) so'mni tashkil qiladi.

3.TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30 (ottiz) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlari pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 10 (o'n) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlarni qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlar ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanan jarayonida aniqlangan kamchiliklarni uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajim va shartlarga muvofiq bajarilishiha «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalinish, «Bajaruvchi»ning roziligidiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlarini o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytdan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlarni boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyatini yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zarami to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan SHNQ va QMQ rivoja qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklarni yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlarni va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hoishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarini o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarini amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjaligiga muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi hamda elektron variantlari bilan «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarida bajaradi.

6.3. Ishlarni tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasini bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilмаган тақдирда, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ни habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnoma ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergen vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi» dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'l maydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'riliшини muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjalari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlar bilan bog'liq holda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjalari buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlari taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklammagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklammagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomanini bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limga belgilangan tartibda to'lovn'i amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnoma ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlari va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlari nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlarni qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalari, xususan O'zbekiston Respublikasi Fugorolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniya muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limga ro'yxtidan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddatti 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida uch nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

"BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati"

DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB "Ipoteka bank"

L/s: 301821860184017045204118134

STIR: 207254949

MFO: 00512

OKED: 70220

Direktor: o'rmosari V.B.

K.Ximmatkulov

Mazkur shartnoma 29.08.1998-yilda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" Qonuning 245 oddasiga bas-sal huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma imtiyamalda qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnoma dan narxlatuvchi shakllanishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist: O. Amirova

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010

Bank nomi: Markazi Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1

STIR (INN): 201122919 MFO 00014 OKED: 97160

Tel: 2335853, 231-11-52

"BAJARUVCHI"

Nomi: "SPECIAL LOYIHA" MCHJ

Manzili: Payariq tumani Go'zal MFY Samarqand ko'cha 41-uy

Bank nomi: O'zmilliyy bank AJ Registon filiali

X/R: 2020 8000 9054 7415 6001

MFO: 01112

STIR: 309163455

OKNX: 71110

Tel: 94 537 11 77

Direktor:

J. X. Haydarov

Yurist

